



IMKONIYATI CHEKLANGAN INSONLARNING JAMIYATGA MOSLASHUVINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Damirova Sitora Ulug'bek qizi

Termiz davlat universiteti Psixologiya yo'nalishi I-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola ijtimoiylashuvning inson ruhiy, jismoniy hamda intellektual rivojlanishida roli, ayniqsa, imkoniyati cheklangan insonlarning jamiyatga moslashuvini ularning hayotidagi ijobiy ta'siri, nogironligi bo'lgan insonlarning moslashuvda to'siq bo'ladigan omillar hamda ularni bartaraf etishning samarali usullarini tahlil qiladi. Ijtimoiylashuvga salbiy ta'sir etuvchi shaxsiy hamda ijtimoiy omillar va moslashtiruv mexanizmlari inson ruhiyatiga psixologik ta'siri izohlanadi.

Kalit so'z: Ijtimoiylashuv, imkoniyati cheklangan insonlar, shaxsiy omillar, nuqson, jamiyat, inkluziv ta'lim, inkluziya, ijtimoiy omillar, rehabilitatsiya, ijtimoiy-psixologik mexanizmlar, muloqot, oilaviy qo'llab-quvvatlash.

Аннотация: В данной статье анализируется роль социализации в психическом, физическом и интеллектуальном развитии человека, особенно положительное влияние адаптации людей с ограниченными возможностями на их жизнедеятельность, факторы, препятствующие адаптации людей с ограниченными возможностями, а также эффективные методы их преодоления. Объясняется психологическое воздействие на психику человека личностных и социальных факторов и механизмов адаптации, негативно влияющих на социализацию.

Ключевое слово: социализация, люди с ограниченными возможностями, личностные факторы, дефект, общество, инклюзивное образование, включение, социальные факторы, реабилитация, социально-психологические механизмы, общение, поддержка семьи.

Annotation: this article analyzes the role of socialization in human mental, physical and intellectual development, especially the adaptation of people with disabilities to society, their positive impact on their lives, the factors that impede the adaptation of people with disabilities, as well as effective ways to eliminate them. Personal as well as social factors that negatively affect socialization and the psychological impact of adaptation mechanisms on the human psyche are explained.

Keyword: socialization, people with disabilities, personal factors, defect, society, inclusive education, inclusion, social factors, rehabilitation, positive-psychological mechanisms, communication, family support.

Kirish. Imkoniyati cheklanganlik (nogironlik) bu shaxsiy ehtiyojlarini va ijtimoiy hayot yetishmovchiliklarini qisman yoki to'liq o'zi mustaqil ta'minlay olmaslikdir.



Nogironlik jismoiy hamda ruhiy bo'lishi mumkin. Hozirgi davr demografik holatiga ko'ra, nogironligi bo'lgan shaxslar sonining o'sib borish tendensiyasi kuzatilmoqda. UNICEF ma'lumotlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, hozirgi kunda butun dunyoda 240 mln imkoniyati cheklangan bolalar mavjud bo'lib, bu har 10 nafar bolaning 1 tasida nuqson borligini ko'rsatadi va bu ko'rsatkich bolalar populyatsiyasining 10% iga yaqinligini anglatadi. 2025-yil 1-choragidagi statistik ma'lumotlar O'zbekistonda aholining 2,7%ini tashkil etuvchi jami 1 031 609 nafar imkoniyati cheklangan bolalar mavjud bo'lib, 173 285 tasi 18 yoshgacha bo'lgan bolalardir. Shu boisdan imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiylashuvi nafaqat shaxsiy, balki global ijtimoiy-psixologik muammo sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Nogironligi bor insonlarning ijtimoiylashuvi — bu shaxsning jamiyat bilan muloqotda bo'lish, madaniy qadriyatlarni o'zlashtirish va ijtimoiy rolini bajarish jarayonidir. Biroq imkoniyati cheklangan insonlar uchun bu jarayon turli to'siqlar va cheklovlar bilan kechishi mumkin. Masalan, ularning jismoniy, aqliy yoki ruhiy imkoniyatlaridagi cheklovlar ularni ba'zi ijtimoiy faoliyatlardan chetda qolishga majbur qilishi mumkin. Shu bois, nogironligi bor shaxslarning ijtimoiylashuvi jamiyat tomonidan yaratiladigan imkoniyatlar, qo'llab-quvvatlash tizimlari va inkluziv muhitga bog'liq bo'ladi.

Darhaqiqat, nogironligi bor insonlar, ayniqsa, bolalar sonining ortib borishi har bir davlatlarda ular uchun qulay ijtimoiy-psixologik muhit yaratish, ularni ijtimoiy jihatdan himoya qilish tizimini kuchaytirish siyosatning muhim yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasida ham bu borada keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2020-yilda "Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi va BMT konvensiyasiga qo'shilish ushbu sohada xalqaro yondashuvlarni joriy etish yo'lida muhim qadam bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'rida"gi PQ-4680-sonli qaror ta'lim muassasalarida inkluziv ta'lim joriy etilishi uchun tamal toshi bo'ldi. Qaror bilan 2020-2025 yil uchun Xalq ta'lim tizimida inkluziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi va 2020-2021 yillarda uni amalga oshirish bo'yicha Yo'l xaritasi, shuningdek, alohida ta'lim ehtiyojlari bolalar ta'limini 2025-yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlandi. Bu esa imkoniyati cheklangan shaxslarni jamiyatga to'laqonli qo'shish, ularning manfaatlarini himoya qilish va ijtimoiy hayotda faol ishtirokini ta'minlash imkonini berdi. Ushbu say-harakatlarga qaramay, yillar davomida jamiyat ongida saqlanib qolgan nogironligi bor insonlarga nisbatan noto'g'ri munosabat, achinish va ularni chetlatish, shuningdek, ularga nisbata befarqlik munosabatlari hali hanuz ijtimoiy munosabatlarga o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Bunday yondashuvlar nogiron shaxslarning o'zini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his qilishiga salbiy ta'sir qiladi. Shu sababli, ushbu mavzuni chuqur



o'rganish va imkoniyati cheklangan insonlarga nisbatan jamiyat munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirish yo'llarini izlash ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Hozirgi glaballashuv olamida imkoniyati cheklangan hamda alohida qobiliyatga ega bo'lgan shaxslar, xususan, bolalarni ijtimoiy muhitga moslashuvini ta'minlash, jamiyat ongida saqlangan stereotiplarni o'zgartirish maqsadida dunyoning barcha mamlakatlarida inkluzivlik siyosati joriy etilgan. Inkluziya imkoniyati bo'lgan bolalar hamda alohida qobiliyatli, shuningdek, ijtimoiylashuvga qiyinchiliklarda duch keluvchi bolalarni o'z tengdoshlari bilan birga o'qitish nogiron bolalarni jamiyatga faol qo'shilishi va o'zini jamiyatning teng a'zosi sifatida his qilishi, o'z nuqsonlaridan uyalmasligi kabi sifatning shakllanishida yordam bersa, sog'lom insonlar uchun inkluziya asrlar davomida qotib qolgan tushunchalarning yoq bo'lishiga, nogironlarga bo'lgan achinish hamda ulardan uzoqlashish holatlarini yo'qolishiga, shuningdek, imkoniyati cheklangan insonlarni o'zlari kabi jamiyatning teng huquqli a'zosi sifati qabul qilishlariga amaliy hamda psixologik jihatdan yordam beradi. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inkluziv ta'lim tashkil etiladi. Inkluziv ta'lim nogiron bolalarning hayotga bo'lgan qarashlarini o'zgartiradi, ularda o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi va jamiyatning faol a'zosi sifatida shakllanishiga ko'maklashadi. Nogironligi bo'lgan bolalarning inkluziv ta'limini psixologik-pedagogik qo'llabquvvatlashning asosiy umumiy maqsadlari quyidagilar:

- bolaning rivojlanishidagi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olish;
- bolaga rivojlanish, tarbiya va ijtimoiylashuvning dolzarb muammolarini hal qilishda yordam berish;
- individual ta'lim yo'nalishlarini ishlab chiqish;
- ta'lim dasturlarini psixologik qo'llab-quvvatlash;
- adekvat o'zini o'zi qadrlashni shakllantirish;
- jismoniy va ruhiy salomatlikni muhofaza qilish va mustahkamlash;
- o'quvchilar, ota-onalar, o'qituvchilarning psixologik-pedagogik kompetensiyasini (psixologik madaniyatini) rivojlantirish;
- jamiyatda alohida ehtiyojli bolalarga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish.

Imkoniyati cheklangan shaxslarning jamiyatga moslashuvi tushunchasi va ijtimoiy-psixologik omillar. Ijtimoiylashuv yoki sotsializatsiya bu shaxslarni jamiyat normalari, qadriyatlari, urf-odatlar va mafkurasini o'zlashtirish jarayonidir. Ushbu o'zlashtirish kattalar va bolalarda xatti-harakatlar va e'tiqodlarni shakllantiradigan, umrbod davom etadigan holatdir. Shuningdek, ijtimoiylashuv - shaxsning ijtimoiy talablarga muvofiqligi; shaxsning ijtimoiy muhit bilan faol munosabati, insonning ijtimoiy aloqalar tizimiga faol kirishi hisoblanadi. Shaxs jamiyatga moslashib borish jarayonida atrof-muhit, uni o'rab turgan insonlar bilan o'zaro munosabatga kirishar ekan ulardan muayyan shakllarni, harakatlarni o'rganadi, ya'ni ma'lum harakatlarni





o'z shaxsiyatiga singdirib boradi va o'ziga xos maqomga erishib, turli ijtimoiy guruhlarda o'zini qanday tutish kerakligini, turli holatlarda o'zida qaysi xususiyatlarni namoyon etish kerakligini o'zlashtirib boradi. Ijtimoiylashuv nazariyasining poydevorini ijtimoiy psixologiyaning asoschisi G. Tard yaratgan.

Jamiyatga moslashuv jarayoni bolaning 2 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan davrida boshlanadi va bolalik davrida shakllangan tajribalar insonning keyingi faoliyati uchun poydevor vazifasini bajaradi. Agar ushbu davrda bola jamiyatdan, ijtimoiy qadriyatlardan uzoqlashib qolsa, u ijtimoiy jihatdan to'liq rivojlanmaydi va kelajakda jamiyat bilan bog'liq munosabatlarda murakkabliklar yuzaga keladi. Eng qizg'in ijtimoiylashuv davri - bu bolalik, ammo balog'at yoshida ham shaxs o'zgaruvchan ijtimoiy qadriyatlarga moslashishga majbur bo'ladi - bir ijtimoiy muhitdan ikkinchisiga o'tishda (maqomning o'zgarishi, turmush qurish, qishloqda yashash joyini shaharga o'zgartirish) shu bilan birga ishni majburan o'zgartirish, doira muloqotining o'zgarishi), hayot davomida yangi rollarga o'tishda (nikoh, farzand ko'rish, lavozimlarni egallash) yuzaga keladi. Shuning uchun davr nuqtai nazaridan ijtimoiylashuvni ikki turga bo'lamiz:

Birinchidan, shaxsning bolalik davrida duch keladigan, jamiyatning a'zosi bo'lgan boshlang'ich;

Ikkinchidan, ikkinchi darajali ya'ni allaqachon ijtimoiylashgan shaxsni jamiyatning yangi tarmoqlariga qo'shadigan har qanday keyingi jarayon.

Ijtimoiylashuv boshqa odamlar bilan og'zaki yoki og'zaki bo'lmagan muloqot jarayonida amalga oshiriladi. Ijtimoiy-psixologik jihatdan moslashuv bir qator omillar bilan bog'liq bo'lib, bulardan biri individual, ya'ni shaxsiy omillardir. Imkoniyati cheklangan insonlarda o'z-o'ziga baho berish darajasi past bo'ladi. Nogironligidan uyalganligi, o'z nuqsonini qabul qila olmasligi sababli bunday insonlar o'zlarini jamiyatdan chetda bo'lishiga harakat qiladi. "Nega aynan men?!" degan savol nogironligi bo'lgan insonni o'zini boricha qabul qilishida to'siq bo'ladi, o'zini boshqalar bilan solishtirib borish esa stressning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Nuqsoni sababli o'zini hech qanday muvaffaqiyatga erisha olmasligiga bo'lgan ishonch uni har qanday faoliyatdan cheklab qo'yadi. Bu kabi insonlar ko'pincha tushkun holatda yuradi, o'zini yaqinlariga "yuk" sifatida his qiladi, o'z ehtiyojlarini qondira olmaslik natijasida muntazam asabiylik va norozilik kelib chiqadi, shuningdek, kelajakka bo'lgan ishonchsizlik kuchli bo'ladi. Imkoniyati cheklangan insonlarda yuz beradigan bu kabi psixologik muammolar ularning ijtimoiylashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi va jarayonni sekinlashtiradi.

Bundan tashqari ijtimoiy omillar ham mavjud bo'lib, eng avvalo, oila muhiti nogironlarning jamiyatga moslashuvida asosiy o'rin tutadi. Ba'zi oilalar o'z farzandlarida yuza kelgan nuqson natijasida jamiyatdan uyalish hissini tuyadi hamda iloji boricha farzandini jamiyatdan uzoqlashtirishga, yashirishga harakat qiladi. Ularning barcha jarayonlardan chetlashtirib, maxsus maktab-internatlarga

joylashtiradi yoki uydan chiqarmaydi. Bu esa ulardagi muloqot qiladi olish qobiliyatini rivojlanmasligiga sabab bo'ladi. Shuningdek, jamiyat ham moslashuvga katta ta'sir etadi. Imkoniyati cheklangan insonlarga nisbatan qarashlar juda salbiy bo'lib, sog'lom insonlar ko'cha-ko'yda ularga duch kelishganda, ulardan o'zini olib qochish, hayratlanish kabi reaksiyalarni beradi. Yaqin yillargacha nogironligi bo'lgan insonlar alohida o'qitilar, shuningdek, ko'p hollarda ishga ham olinmasdi, chunki ulardagi nuqson vazifalarni o'z vaqtida va aytilgandek bajarishga imkon bermaydi degan tushuncha bor edi. Bu esa asrlar davomida saqlangan stereotiplar bilan bog'liq. Inkluziya siyosatining olib borilayotganligi sababli jamiyatdagi bu kabi salbiy holatlar ta'sir pasayib bormoqda. Ko'plab ota-onalar oilada nogiron farzandlarini psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlamoda, shuningdek, farzandlarini jamiyatdan izolatsiya qilish fikridan voz kechib, ularni umumta'lim maktablariga olib borib o'qitishmoqda, bundan tashqari bugungi kunda ko'plab tashkilotlarda imkoniyati cheklangan insonlar faoliyat olib bormoqda. Aynan ijtimoiy hayotda faol ishtirok etayotgan nogironligi bo'lgan odamlarda o'z-o'zini baholash hissi oshirib borib, kelajak uchun ayrim rejalarni tuzish hamda yorqin kelajakka ishon hissi oshadi. Jamiyatga qo'shilish natijasida bu kabi insonlar o'zini to'la qonli qabul qiladi. Inkluzivlik natijasida jamiyatdagi stereotiplar ham parchalanib boradi. Jamiyat imkoniyati cheklanganlarni o'zlari bilan teng huquqli sifatida qabul qiladi, ularni o'zlaridan chetlatish holatlari kamayadi.

Moslashuv jarayonini yaxshilashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari. Nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatga moslashuvi faqatgina jismoniy emas, balki ijtimoiy-psixologik mexanizmlarga ham tayanadi. Bir qator usullar natijasida imkoniyati cheklangan insonlarning ijtimoiylashuvining yaxshilanishiga yordam beradi. Bulardan biri psixologik maslahat va psixoterapiya bo'lib, bunda insonning o'zini anglashi va qabul qilishi maqsad qilib olinadi. Bu yo'nalishida kognitiv-xulq-atvor terapiyasi, guruhli terapiya, travmadan keyingi o'sish usullaridan foydalaniladi. Kognitiv-xulq-atvor terapiyasida "Men nogironman, shuning uchun ojizman, hech narsaga erisholmiman" degan fikmi o'zgartirishga yordam beriladi. Guruhli terapiyada o'ziga o'xshash muammolarga ega bo'lgan insonlar bilan birga muloqot qilish natijasida "Men yolg'iz emasman" degan tuyg'usini shakllantiriladi. Travmadan keyingi o'sish usulida esa mutaxassislar yordamida insonga o'z travmasini tushkunlik manbai deb emas, balki nuqsonni o'zining kuch manbaiga aylantirishga o'rgatiladi.

Inkluziv ta'limning joriy etilishi ham imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatga moslashuvi uchun samarali vosita hisoblanadi. Inkluziv ta'lim – bu shunchaki birga o'qish emas, balki o'zaro ijtimoiy tenglikni his qilishdir. Ushbu ta'lim usulida nogironligi bor bolalar sog'lom tengdoshlari bilan muloqotga kirish orqali jamiyatdagi ijtimoiy rollarni o'rganadi. Inkluziv ta'lim natijasida jamiyatda singib qolgan stereotiplarni sindiriladi, sog'lom bolalar yoshligidan xilma-xillikni qabul qila boshlaydi va bu esa kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan diskriminatsiyaning



oldini oladi. Shuningdek, nogironligi bor bolalarda ta'lim olish orqali intellectual salohiyat oshadi, ularning "o'zini-o'zi baholashi" olingan bilimlar orqali oshib boradi va mustahkamlanadi.

Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan insonlarni ijtimoiylashuvda ijtimoiy reabilitatsiya dasturlarini ham keng qo'llash ko'zlangan natijaga erishilishida yaxshi usuldir. Ushbu dasturlar insonning jamiyatdagi funksional mustaqilligini ta'minlaydi. Ijtimoiy reabilitatsiya dasturlarida bir qator usullardan foydalanish mumkin: kasbiy reabilitatsiyada nogironligi bor shaxslarni IT, dizayn kabi zamonaviy kasblarga o'rgatish orqali iqtisodiy mustaqilligi ta'minlanadi. Huquqiy savodxonlikni oshirish, ya'ni o'z huquqlarini bilish natijasida ulardagi o'ziga bo'lgan ishonchni va subyektivlik (o'z shaxsiy hayotiga ega bo'lish) hissini oshiradi. Dasturda mavjud ijtimoiy ko'nikmalarni tiklash usuli orqali imkoniyati cheklangan insonlarning jamoat joylaridan qanday foydalanish, o'zini tutish, transport va xizmat ko'rsatish sohalarida o'zini erkin tuta olish ko'nikmalarni shakllantiriladi.

Motivatsion va qo'llab-quvvatlovchi muhitni shakllantirish inson moslashuvni tezlashtiradi. Qo'llab-quvvatlash oiladan boshlanishi insondagi mustaqil qarorlar qabul qilish va harakatga kelishda muhim omildir. Ommaviy axborot vositalarida nogironligi bor insonlarni "jabrdiyda" yoki "qahramon" sifatida alohida ko'rsatish emas, balki jamiyatning oddiy, mustaqil va faol a'zosi sifatida talqin qilinishi jamiyatning har bir a'zosi o'zini qanday tutish kerakligi haqidagi tushunchalarni mustahkamlanishida yordam beradi. Xavfsiz muhitni shakllantirish deganda faqat panduslardan iboratlik emas, balki muloqot jarayonida "psixologik to'siqlar"ni olib tashlash ham nazarda tutiladi.

Moslashuvning ushbu modellari bir-biri bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Misol uchun, inkluziv ta'lim ijtimoiy integratsiyani osonlashtiradi, psixoterapiya esa ta'lim olish uchun ichki motivatsiyani oshirish imkonini beradi. Ushbu modellarni bir-biriga bog'lab qo'llash moslashuvni oson, tez hamda samarali qiladi.

Xulosa. Sotsiolizatsiya insonni ruhiy hamda intellektual rivojlanishining asosiy omillaridan hisoblanadi. Faqat intellektual rivojlanish bilan xoh sog'lom, xoh nogironligi bo'lgan insonlarni ijtimoiy muloqotda faol bo'lishini ta'minlay olmaydi desak to'g'ri bo'ladi. Imkoniyati cheklangan insonlarni turli usullar orqali jamiyatga moslashtirish ulardagi o'ziga bo'lgan ishonchni, o'z-o'zini baholashini oshirish, jamiyatdagi stereotiplarni parchalash, nogironligi bo'lgan insonlarni faol ijtimoiy hayotga jalb qilish imkoniyatini yaratadi. Psixologik malahat va psixoterapiya, inkluziv ta'limni joriy etish, qo'llab-quvvatlash muhitini yaratish, ijtimoiy reabilitatsiya dasturlaridan foydalanish, shuningdek, OAV dan ijobiy foydalanish orqali imkoniyati cheklangan insonlarning ijtimoiylashuviga salbiy ta'sir etuvchi omillarni susaytiradi hamda moslashuvni osonlashtiradi, tezlashtiradi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.I.Eshmurodov, S.N.Ismatullayev “Imkoniyati cheklangan shaxslar ijtimoiylshuv jarayoniga ta’sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillar”. New renaissance international scientific journal. 2023
2. Y.K.Narmetova, M.S.Akamaldinova “Imkoniyati cheklangan insonlarning ijtimoiylashuvi – zamonaviy jamiyatning insonparvarlik mezoni”. Central Asian journal of academic research. 2025 №3
3. “Global report of children with developmental disabilities”. World health organization. 2023
4. S.B.Djumayeva, R.B.Rustamova “Nogironligi bo’lgan bolalarning psixologik rivojlanishiga inkluziv ta’limning ta’siri”. Journal of science innovative research in Uzbekistan. 2024

Foydalanilgan saytlar:

1. WikipediA
2. Gazeta.uz